
Buvaydada DXX kubogi taqdirlash marosimi chinakam yoshlar bayramiga aylandi

Buvayda tumanida mahalla yoshlari o'rtasida sportning futbol hamda mini futbol turi bo'yicha "Davlat havfsizlik xizmati kubogi" musobaqalarining tuman bosqichi yakuniga yetdi. O'tkazilgan DXX kubogi bahslarida tumandagi barcha mahalla jamoalari ishtirok etishdi.

Murosasiz bahslarda katta futbol musobaqasida "Bachqir" MFY yoshlari; Mini futbol yo'nalishida "Buvayda" MFY yoshlari g'alab qozongan bo'lsalar, qizlar o'rtasidagi mini futbol musobaqasida "Bachqir" MFY qizlari g'alaba qozonishdi va tuman chempioni sifatida musobaqaning viloyat bosqichiga yo'llanma olishdi

Taqdirlash marosimida tuman hokimi Behzodjon Ibragimov hamda sektor rahbarlari ishtirok etib, G'olib bo'lgan jamoa yoshlariga qimmatbaho esdalik sovg'alarini topshirdilar. Mashhur estrada xonandasi Jo'rabek Qodirov tomonidan kuylangan qo'shiqlar tadbirga o'zgacha shukuh bag'ishladi

2024-06-14 10:44:49